

# PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM AND RECREATION IN THE SYRDARYA REGION AND THEIR ASSESSMENT BASED ON GIS TECHNOLOGIES

**Alimkulov Nusratulla Rakhmonkulovich**

Doctor of Geographical Sciences (DSc), Professor, Nizami Tashkent State Pedagogical University

**Baratova Dilnoza Nuritdinovna**

PhD Candidate (Doctoral Researcher), Gulistan State University

## SIRDARYO VILOYATIDA TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANIRISH ISTIQBOLLARI, GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BAHOLASH.

**Alimkulov Nusratulla Raxmonkulovich**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti geografiya fanlar doktori (DSc), professor

**Baratova Dilnoza Nuritdinovna**

Guliston Davlat Universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatining turizm va rekreatsiya salohiyati tahlil qilinib, hududda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqotda turizm infratuzilmasining holati, turistlar oqimi ko'rsatkichlari hamda geografik axborot tizimlari (GAT) asosida turistik resurslarni kompleks baholash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, viloyatda turizmni rivojlantirishning istiqbollari va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Sirdaryo viloyati, turizm, rekreatsiya, geografik axborot tizimlari, turistik resurslar, turizm infratuzilmasi, ichki turizm, xorijiy turizm, hududiy rivojlanish, GIS texnologiyalari.

**Аннотация:** В данной статье проведён анализ туристско-рекреационного потенциала Сырдарьинской области и освещены приоритетные направления развития туризма в регионе. В исследовании рассмотрены состояние туристической инфраструктуры, показатели туристического потока, а также вопросы комплексной оценки туристических ресурсов на основе геоинформационных систем (ГИС). Кроме того, разработаны перспективные направления и практические рекомендации по развитию туризма в области.

**Ключевые слова:** Сырдарьинская область, туризм, рекреация, геоинформационные системы, туристические ресурсы, туристическая инфраструктура, внутренний туризм, международный туризм, региональное развитие, ГИС-технологии.

**Annotation:** This article analyzes the tourism and recreational potential of the Syrdarya region and highlights the priority directions for tourism development in the area. The study examines the current state of tourism infrastructure, tourist flow indicators, and issues of comprehensive assessment of tourism resources based on Geographic Information Systems (GIS). In addition, перспективные направления and practical recommendations for tourism development in the region are proposed.

**Keywords:** Syrdarya region, tourism, recreation, geographic information systems, tourism resources, tourism infrastructure, domestic tourism, international tourism, regional development, GIS technologies.

KIRISH:Hozirgi kunda Turizm sohasi mamlakatimizda jadal rivojlanayotgan sohalardan biri.Ushbu sohaning rivojlanishida mamlakatimiz siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan boshqa davlatlar qatori islohotlar olib borishi, bu bugungi global jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish imkoniyatini beradi.Mamlakatimizda mavjud turizm va rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanishni talab etadi.O'zbekiston sharoitida bunday resurslar toifasiga asosan tarixiy-madaniy va arxeologik yodgorliklarni kiritish mumkin.Biroq, mamlakatimiz nafaqat ushbu yo'nalishdagi turistik resurslar bilan balki, dam olish, sog'liqni tiklash va rekreatsiya resurslariga boy ekanligi bilan ham ko'plab turistlarni o'ziga jalb eta oladi.Ammo afsuski, turizm sohasi Koronavirus (Covid-19) pandemiyasi ta'sirida cheklovlar tufayli ham global ham milliy miqyosida turizmni to'htatib quydi.Bu ayniqsa, jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlarda sezilarli darajada ko'rindi.Demak, bu sohada dunyo mamlakatlari qayta islohatlarni tashkil etib qayta ko'rib chiqmoqda. O'zbekistonda ham o'z o'rniga ega bo'lish uchun mavjud rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish va uni xalqaro turizm bozorida mavqeini mustahkamlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur sohani rivojlantirish borasida qator normativ huquqiy asoslar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va shu farmon bilan tasdiqlangan "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi", 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7- maydagi 242-son qarorida "Viloyatda turizmni jadal rivojlantirilishi, hududning turistik salohiyatidan samarali foydalanilishi, turizm infratuzilmasi yaxshilanishi, ichki va ziyorat

turizmi rivojlantirilishi, yangi turizm mahsulotlarini yaratilishi yuzasidan vazifalar yuklatildi. ” Bu kabi vazifalar mazkur sohani rivojlantirish va ularning imkoniyatlaridan to’laqonli foydalanish bo’yicha tadqiqotlar olib borish mavzuning dolzarbligini ko’rsatib beradi. Hududlarni turistik imkoniyatlarini baholashda tabiiy geografik ko’rsatkichlarini kompleks baholashni maqsadga muvofiqdir . Shuning uchun ham tadqiqotimizda tabiiy geografik ko’rsatkichlarni zamonaviy GAT dasturlaridan foydalangan holda kompleks baholashni maqsad qildik. GAT dasturlaridan turizmning axborot tizimlarini shakllantirishda , turizmning atrof-muhitga va aksincha atrof-muhitning turizmga ta’sirini va turizm uchun mos hududlarni aniqlashda foydalanish samarali hisoblanadi.

**MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI:** Rekreatsion turizmning mazmunini ochib berishda eng avvalo rekreatsiya atamasining mazmunini o’rganish talab etiladi. Rekreatsiya atamasi ingliz tilida birinchi marta XIV asr oxirida, birinchi bo’lib “bemor odamni tetiklash yoki davolash” ma’nosida qo’llanilgan va asl kelib chiqishi lotin tilidan (re: “yana”, creare: " yaratmoq, tug'dirmoq, tug'dirmoq") olingan [11]. Keyinchalik, rekreatsiya tushunchasiga ta’rif berishda hamda uni turizm sohasi bilan bog’lash bo’yicha ko’plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ulardan biri V.A. Kvartalnovning fikricha, rekreatsiya bu – insonning jismoniy, intellektual va emotsional kuchini kengaytirilgan tarzda qayta tiklash jarayonidir [3]. AQSh milliy turizm siyosati tadqiqotlar markazining ta’rifiga ko’ra esa, rekreatsiya bu – insonlarning bo’sh vaqtdan personal foydalanish jarayoni hisoblanadi. Mahalliy mutaxassislardan Z. Usmonovning tadqiqotlarida rekreatsiya tushunchasini uydan tashqarida, masalan, tabiatga turizm sayohatlarda, sanatoriy-kurort, sog’lomlashtirish muassasalarida dam olish yo’li bilan salomatlikni va ishchi kuchini tiklash ko’rinishida talqin etiladi [4]. Y. Sharunenkonning ta’kidlashicha, rekreatsion turizm deganda insonning dam olish, rehabilitatsiya va davolash, jismoniy, aqliy va hissiy kuchini tiklash va rivojlantirish maqsadidagi sayohatlar tushuniladi [5]. A. Panasuik, rekreatsiya va turistik xizmatlarni individual va jamoaviy iste’mol jarayonida qo’llaniladigan, jamiyatning dam olishga bo’lgan

ehtiyojlarini qondiradigan foydali nomoddiy mahsulot deb hisoblaydi va bularning barchasi insonga jismoniy va aqliy kuchini kundalik hayotiy yumushlarini amalga oshirishdan yuzaga kelgan charchoqni bartaraf etishga imkon beradigan faoliyatdir deb hisoblaydi [6]. Rekreatsiya atamasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan mahalliy olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirgan holda Z. T. Abdulxakimov tomonidan: «Rekreatsiya – bu tabiiy muhitda inson o'zining ish qobiliyatini qayta tiklay olishi va dam olishi mumkin bo'lgan joylar (tabiatning manzarali joylari, baland tog' va tog' oldi hududlari, suv havzalari bo'ylari, soylar, sharsharalar, tabiiy yodgorliklar va qo'riqxonalar, davolanish va dam olishga mo'ljallangan sanatoriy, turizm bazalar, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, turli ko'rgazmalar, teatrlar, turli madaniy kechalar va tadbirlar)ni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir»,– degan ta'rif ishlab chiqilgan[7]. Chunki rekreatsiya nafaqat mehnat qobiliyatini qayta tiklash, balki ruhiy va jismoniy faoliyatni qayta tiklashni ham o'z ichiga oladi. Yuqoridagi keltirilgan qarashlar hamda ta'riflarda rekreatsion turizm tushunchasining mohiyatini to'liq ochib berilmagan. Negaki, mazkur mavzuni o'rganadigan olimlar o'zlarining ilmiy izlanishlari doirasida yoki tadqiqotlari asosida tahlil qilishgan. Bundan tashqari, hududlarning rekreatsion imkoniyatlari o'ziga xos keng qamrovli bo'lganligi bois, ushbu mavzu doim o'rganishga mumkinligini isbotlab beradi.[9]

**TAHLIL VA NATIJALAR:** Bugungi kunda Respublikamizda turizm bo'yicha olib borilayotgan islohatlar har hududning o'ziga xos turizm-rekreatsiya imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish eng oliy maqsad qilib belgilangan. Shuningdek Sirdaryo viloyatida turizm va rekreatsiya rivojlantirish borasida Mamlakatimiz Prezidenti 2025- yil 4-dekabrda xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ishtirok etib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Mazkur yig'ilishda xalqaro ahamiyatdagi yo'llarning 241 km Sirdaryoning 7 ta tumanidan o'tganligi servis va logistikani rivojlantirish uchun katta imkoniyat. Sirdaryo, Sayhunobod, Guliston va Boyovutni Bekobod bilan bog'laydigan 74 km ni rekonstruksiya qilish yuzlab savdo-servis obyektlari, kafe-restoran, dam olish

joylarini ishga tushirishga imkon beradi. Guliston shahridan o'tuvchi "Do'stlik" kanali bo'yidagi 67 gektarda yirik savdo-ko'ngilochar majmua barpo etilishi rejalashtirildi. Guliston tumanining Sohilobod va Ahillik, Sirdaryo tumanining kamolot mahallalari hududida ham jami 360 gektarda yirik daryo bo'yi ekoturizm komplekslari tashkil qilinishi belgilandi. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyat turizm va rekreatsiya resurslariga boy, imkoniyatlar yetarlicha. Sirdaryo viloyatiga sayyohlarning tashrif buyurish ko'rsatkichlarini tahlil etadigan bo'lsak, quyidagi jadval Sirdaryo viloyati Turizm boshqarmasi ma'lumotlariga tayangan holda tuzib chiqdik.

**Sirdaryo viloyatida turizmni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari to'g'risida  
MA'LUMOT**


T/r	Ko'rsatkich nomi	2024 yil 1-chorak	2025 yil 1-chorak reja	2025 yil 1-chorak amalda	Rejaga nisbatan %	O'tgan yilga nisbatan %	2025 yil 6 oylik reja	2025 yil yakuniy reja	2024 yil fakt
	Jami	82,1	87,6	89,2	203,4	240,0	259,9	576,7	600,1
1	Xorijiy	8,3	11,0	11,1	101,5	134,2	29,0	70,0	113,8
2	Mahalliy	73,8	76,6	78,1	101,9	105,9	230,9	506,7	486,3

Ushbu jadval ma'lumotlari asosida. Sirdaryo viloyatida turizmni rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, 2024 yilning 1-choragi bilan taqqoslaganda 2025 yilning 1-choragida ijobiy o'sish kuzatilgani aniqlanadi. Jumladan, jami turistlar soni 82,1 ming nafardan 89,2 ming nafarga yetib, reja ko'rsatkichlaridan ham yuqori bajarilgan. Bu esa hududda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini ko'rsatadi. Xususan, xorijiy turistlar oqimi 8,3 ming nafardan 11,1 ming nafarga oshgan bo'lib, bu 134,2 foizlik o'sishni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich viloyatning xalqaro turizm bozorida jozibadorligi ortib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, mahalliy turistlar soni ham 73,8 ming nafardan 78,1 ming nafarga ko'tarilib, barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda.

Shuningdek, 2025 yil uchun yarim yillik va yillik rejalarning yuqori darajada belgilanganligi hamda ularning bajarilishiga yaqinlashish jarayoni turizm

sohasining strategik rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, mahalliy turizm ulushi yuqoriligi ichki turizmni rivojlantirishda mavjud salohiyatdan samarali foydalanilayotganini bildiradi.

**Quyidagi diagramma 2024 va 2025 yil 1-chorak ko'rsatkichlarini diagramma asosida taqqoslaydi:**



Umuman olganda, tahlil natijalari Sirdaryo viloyatida turizm sohasi barqaror o'sish bosqichiga kirganini, xorijiy va mahalliy turistlar oqimi ortib borayotganini hamda kelgusida ushbu yo'nalishda yanada yuqori natijalarga erishish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini asoslaydi. Bu ko'rsatkich natijalarini yanada yuqori raqamlarni ko'rsatish uchun biz GAT (GIS-Geografik Axborot Texnologiyalari) asosida baholash natijasi juda katta imkoniyat beradi.

1. Turistik resurslarni xaritalash (Mapping) - viloyatda barcha 91 ta turistik obyektlarni xaritada belgilash. Har bir obyekt haqida ma'lumotlar (rasm, tavsif, xizmatlar) qo'shish.
2. Turistik zonalarni baholash (analiz qilish) - Qaysi hududlar turizm uchun qulayligini aniqlash, iqlim, suv, transport, infratuzilma asosida baholash, eng yaxshi turistik hududlarni aniqlash.
3. Turistik marshrutlarni yaratish - eng qisqa va qulay yo'llarni hisoblash, 1 kunlik, 2 kunlik tur marshrutlarini tuzish, transport va vaqtni hisobga olish.
4. Turistlar oqimini tahlil qilish - qaysi hududlarga turistlar ko'proq tashrif buyurmoqda, qaysi hududlar kam rivojlanganligini aniqlash, mavsumiy o'zgarishlarni ko'rish.

5. Iqlim o'zgarishi ta'sirini baholash-harorat, yog'in, suv resurslari o'zgarishini ko'rish, turizmga salbiy va ijobiy ta'sirini aniqlash.

6. Yangi turistik obyektlar uchun joy tanlash-mehmonhonalarni qaysi joylarga qurish, qayerda dam olish zonasini ochish foydali, GIS orqali optimal joy tanlanadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR:** Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Sirdaryo viloyatida turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni berish maqsadga muvofiq:

1. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish: Viloyatda mehmonxonalar, dam olish maskanlari, yo'l va transport xizmatlarini yaxshilash zarur. Ayniqsa, turistik obyektlarga olib boruvchi yo'llarni ta'mirlash va zamonaviy servislarni joriy etish muhim.

2. Xorijiy turistlarni jalb qilishni kuchaytirish: Xalqaro reklama kampaniyalarini yo'lga qo'yish, vizasiz rejim imkoniyatlaridan keng foydalanish va xorijiy turoperatorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

3. Ichki turizmni qo'llab-quvvatlash: Mahalliy aholi uchun arzon va qulay turpaketlar ishlab chiqish, oilaviy va dam olish turizmini rivojlantirish orqali ichki turizm ulushini oshirish mumkin.

4. Raqamli texnologiyalarni joriy etish (GAT/GIS): Turistik obyektlar, marshrutlar va xizmatlar haqida yagona elektron platforma yaratish hamda GIS texnologiyalari asosida hududning turistik xaritalarini ishlab chiqish samaradorlikni oshiradi.

5. Turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish: Ekoturizm, agro-turizm, ziyorat turizmi va sport turizmi kabi yangi yo'nalishlarni rivojlantirish orqali turistlar oqimini ko'paytirish mumkin.

6. Hududiy brendingni shakllantirish: Sirdaryo viloyatini alohida turistik brend sifatida targ'ib qilish, uning o'ziga xos jihatlarini (tabiiy resurslar, madaniy meros) ommalashtirish zarur.

GAT texnologiyalaridan foydalanish turistik resurslarni kompleks baholash, hududiy tahlil qilish, samarali rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, Sirdaryo viloyatida turizmni rivojlantirishda GIS asosida ishlab chiqilgan xaritalar va tahliliy modellar hududning turistik salohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 5-dekabrda “Chorvoq” turistik-rekreatsiya zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5273-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-3441087>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yilning 28-aprelda “Zomin” turistik-rekreatsiya zoni faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 254-sonli Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-5398836>
3. Квартальнов В.А. Туризм. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 320 с.
4. Usmanova Z.I. O‘zbekistonda turizm – rekreatsiya xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendentsiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – SamISI, 2018 y. - 12 b
5. Sharunenko Yu.M. Recreational Tourism [Electronic source]: Educational–methodical manual. Orel: Interregional Academy of Safety and Survival 2014 - 102p. URL: <http://www.iprbookshop.ru/33439.html>. — ЭБС «IPRbooks»
6. Panasiuk A. (eds.) *Ekonomika turystyki i rekreacji*. Wydawnictwo Naukowe PWN; 2011
7. Abdulxakimov Z.T. Mintaqada rekreatsiyasidan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – SamISI, 2019 y. - 12 b.
9. Vayskulov R, Shaymanova N-”O‘zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ” “Yashil iqtisodiyot va Taraqiyot” 2023 y, 7-son.